

---

## HAR OILADA QUYOSH KULSIN

Kuni kecha televizorda namoyish etilgan ijtimoiy rolik diqqatimni tortdi. U kitobxonlik va kitobsevarlik targ'ibotiga bag'ishlangan bo'lib, "Uyingizga oftob oling, Bittagina kitob oling" satrlari bilan yakunlandi.

Allomalarimizdan biri "Seni hech qachon aldamaydigan va sotmaydigan do'st kitobdir" deganida uning insoniyatni hamisha yaxshilikka, ezgulik va komillikka etaklash fazilatini ulug'lagani shubhasizdir.

Bugun kitobxonlik madaniyatiga erishish uchun unga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilmoqda. Qaysi bir adabiyot kerak bo'lsa, kutubxonalardan, kitob do'konlaridan, boringki, internetdagi maxsus saytlardan topib o'qishimiz mumkin. Buning uchun xohish va istak bo'lsa, bas. Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, kitoblarimiz orasida ham ma'naviy qashshog'i, sayoz va sifatsizlari, oldi-qochdi, behayo mavzularga alohida urg'u beradiganlari borligi haqiqat. Eng qizig'i bunday kitoblarning bozori chaqqonligida.

Yaqinda o'zimga tanish matbuot do'konida kitoblar sotilayotganiga ko'zim tushdi. Bir xaridor ayol kitob ko'rar, men ham uning yoniga qo'shildim. Ayol qizi kitob o'qishga juda qiziqib qolganini aytib, unga kitob tanlardi. Ichimda xursand bo'lib ketdim. Shunday ota-onalar, shunday farzandlar ko'paysin, deb niyat qildim. Kitoblar bilan tanishar ekanman, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalaridan tortib, zamonaviy shoir va yozuvchilarimizning eng sara asarlariga ko'zim tushib, quvonib turganimda, boyagi xaridorning tanlagan kitobi hayratimni oshirdi.

Qizingiz necha yoshda?- deb so'radim opadan.

O'n beshda.

Kechirasiz-u, bu kitob qizingizning yoshiga mos kelmaydi. Uning dunyoqarashi hali hayratga to'la gulqog'oz. Bu oldi-qochdi, bozori chaqqon asarlar (ularni asar deb ham bo'lmaydi!) faqat hamyonni to'ldirib olsam bo'lgani, degan maqsadda yoziladi. Bu kabi kitoblarning sarlavhasiyoq odamni o'ziga jalb qiladi, biroq bunday asarlar qizingiz ma'naviyatiga putur etkazadi. Prezidentimiz bot-bot takrorlayotgan, kundalik ehtiyojimizga aylanib ulgurgan "O'z bolangni o'zing asra" degan da'vatini eslang-chi. Nahot, bolangizga jaholatni sotib olib bersangiz?!

Xullas, ayol men tavsiya etgan durdona asarlarimizdan birini xarid qildi. O'ylaymanki, o'sha kitobsevar qizaloq yaxshi asarlargagina oshno bo'ladi.

Shu o'rinda yana bir haqli e'tiroz bor. Biz bolalarimiz kitob o'qishi kerak, deya bong uramiz-u, o'zimiz qachon kitob o'qiymiz?! Qush uyasida ko'rganini qiladi. Kechgacha bozor aylanamiz, ko'chada o'tgan-ketganni g'iybat qilamiz, soatlab seriallarni ko'ramiz, gap-gashtak, to'y-u ma'rakalar bizdan minnatdor. Lekin bolamiz-chi?... Qachon ular bilan birga o'tirib kitob o'qiymiz? Qachon birga she'r yodlaymiz? Qachon oilamiz bilan yaxshi asarlar ustida taassurotlarimizni o'rtoqlashamiz?

Axir ota-ona farzand uchun ibrat namunasi. Ba'zan oiladagi kitobxonlik muhiti haqida gapirganimizda ko'pchilik e'tiroz bildiradi. Tirikchilik va'jini o'rtaga qo'yishadi. Ammo biz kim uchun elib-yuguramiz-mana shu bolalarimiz uchun. Kitobxonlik uchun kunda ikki soatgina vaqt ajratsangiz ham etarli. Axir behuda narsalarga soatlarimizgina emas, kunlarimiz, oylarimiz sarflanmoqda. Farzandlar ota-ona so'zlaridan ko'ra ko'proq ularning hatti-harakatlaridan o'rnak olishlarini psixologlar ham ta'kidlashgan. Albatta, ota-onalar va farzandlarning birgalikdagi kitobxonliklari ular orasida mehr-muhabbatni, o'zaro hurmat va e'tiborni kuchaytiradi. Bunday muhitda kamol topgan ertamiz egalari esa yurtga munosib farzand bo'lishlari shubhasiz.

Kitob – oftob, shubhasiz. Shunday ekan, har oilaning o'z kutubxonasi, ya'ni quyoshi bo'lsin, uning nuri qalblarimiz, hayot yo'llarimizni mangu yoritsin.

**Munira QO'QONOVA.**